

**Bekzod MUSAYEV,**

*O'zbekiston-Finlyandiya Pedagogika instituti  
katta o'qituvchisi, Geografiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

E-mail: [bekzodmusayev85@gmail.com](mailto:bekzodmusayev85@gmail.com)

Tel: (97) 286 56 82

**Olimjon SHERXOLOV,**

*Samarqand shahar 1-son ixtisoslashtirilgan maktab-internati geografiya fani o'qituvchisi,  
Geografiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

E-mail: [olimjonsherxolov@gmail.com](mailto:olimjonsherxolov@gmail.com)

Tel: (97) 286 56 82

*O'zMU professori, g.f.d. Z.N. Tojiyeva taqrizi asosida*

## TERRITORIAL FEATURES OF POPULATION DYNAMICS AND STRUCTURE OF CITIES OF MIRZACHUL ECONOMIC REGION

Annotation

In the article, the changes in the population dynamics of the cities of the Mirzachol economic region, the territorial aspects of their structure, the specific characteristics of the demographic development of the cities of the economic region are scientifically justified. Demographic processes in the cities of Mirzachol economic region, demographic potential, quantitative change and location of the population, restoration of the population, national and mechanical movement of the population were tried to be clarified.

**Key words:** economic region, region, demography, national structure of the population, gender structure of the population, age structure of the population, demographic potential, demographic processes.

## ТЕРРИТОРИАЛЬНЫЕ ОСОБЕННОСТИ ДИНАМИКИ И СОСТАВ НАСЕЛЕНИЯ ГОРОДОВ МИРЗАЧУЛЬСКОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЙОНА

Аннотация

В статье научно обоснованы изменения в динамике численности населения городов Мирзачольского экономического района, территориальных аспектов их состава, особенностей демографического развития городов Мирзачольского экономического района. Пытались выяснить демографические процессы в городах Мирзачольского экономического района, демографический потенциал, количественное изменение и размещение населения, восстановление численности населения, национальное и механическое движение населения.

**Ключевые слова:** экономический район, регион, демография, национальный состав населения, половой состав населения, возрастной состав населения, демографический потенциал, демографические процессы.

## MIRZACHO'L IQTISODIY RAYONI SHAHARLARI AHOLI SONI DINAMIKASI VA TARKIBINING HUDUDIY XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Maqolada Mirzacho'l iqtisodiy rayoni shaharlari aholi soni dinamikasidagi o'zgarishlar, tarkibining hududiy jihatlari, iqtisodiy rayon shaharlari demografik rivojlanishidagi o'ziga xos xususiyatlari ilmiy asoslab berilgan. Mirzacho'l iqtisodiy rayoni shaharlaridagi demografik jarayonlar, demografik salohiyati, aholining miqdoriy o'zgarishi va joylanishi, aholi sonining qayta tiklanishi, aholining milliy, hamda mexanik harakatini yoritib berishga harakat qilingan.

**Kalit so'zlar:** iqtisodiy rayon, rayon, demografiya, aholining milliy tarkibi, aholining jinsiy tarkibi, aholining yosh tarkibi, demografik salohiyati, demografik jarayonlar.

**Kirish.** Mirzacho'l iqtisodiy rayonining Jizzax, Zomin shaharlarida aholi qadimdan yashab kelganligi tarixiy manbalarda alohida qayd etilgan. XX asrning 60-yillarida qo'riq yerlarning o'zlashtirilishi, mehnat resurslarining migratsiyasi natijasida, mintaqa aholisining soni juda tez ortishiga olib keldi. Mazkur davrlarda nafaqat, qishloq joylardan balki, shahar joylarda ham ko'plab kishilar ko'chib kelib joylashgan.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Shaharlar aholisining joylanishi, aholi soni dinamikasidagi o'zgarishlar, tarkibining hududiy jihatlari, shaharlar aholisining demografik rivojlanishidagi o'ziga xos xususiyatlarini tadqiq etishning ilmiy asoslari bo'yicha xorijiy olimlardan F.Perru, J.Gottman, K.Linch, R.Merfi., F.Gibbert, U.Alonso va boshqalar tomonidan o'rganilgan. MDH mamlakatlarida O.A.Konstantinov, V.Sh.Djaoshvili, G.M.Lappo, F.M.Listengurt, Ye.N.Persik, B.S.Xorev, mamlakatimizda shaharlarni rivojlanishi va joylanishini geografik o'rganish masalalari bo'yicha E.A.Axmedov, O.B.Ata-Mirzayev, T.I.Raimov, A.S.Soliyev, A.A.Qayumov, S.S.Zokirov Z.T.Abdalova, M.M.Egamberdiyeva, A.M.Mavlonov, S.K.Tashtayeva, P.R.Qurbonov kabi olimlar ilmiy tadqiqotlar olib borishgan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mirzacho'l iqtisodiy rayoni shahar aholisining soni 1026,6 ming kishi bo'lib, jami aholining 45,1 foizini tashkil etadi (01.01.2020-yil). Bu ko'rsatkich bo'yicha iqtisodiy rayon respublikada o'rta o'rinlarni egallaydi. Viloyatlar kesimida oladigan bo'lsak, Jizzax viloyatida jami shahar aholisi 659,9 ming kishi bo'lib, shahar aholisining ulushi 46,7 foizga teng. Sirdaryo viloyati shahar va shaharchalarida esa 366,9 ming kishi yashaydi. Umumiy shahar aholisining ulushi 42,5 foizni tashkil qiladi (01.01.2020-yil). Iqtisodiy rayondagi Sirdaryo viloyati mamlakatimizda o'zining demografik salohiyati bo'yicha oxirgi o'rinlarni egallaydi.

Iqtisodiy rayon demografik rivojlanishidagi o'ziga xos xususiyatlardan biri, respublikaning boshqa hududlariga nisbatan aholi soni o'sish sur'atining yuqoriligidir. "Aholining son jihatdan o'sishi hamda hududiy joylanishi zichligini tahlil qilish o'rganilayotgan regionning demografik jarayonlari, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini belgilab berishda katta ahamiyat kasb etadi. Bizga ma'lumki, aholining miqdoriy o'zgarishi va joylanishi aholi sonining qayta tiklanishi hamda mexanik harakati, hududga aholining kelib o'tmashgan vaqti bilan bog'liq uzoq tarixiy jarayonlar va ularga ta'sir qiladigan ijtimoiy-iqtisodiy geografik omillar asosida vujudga keladi" [5; 34-s.]. Shu nuqta nazardan olganda, iqtisodiy rayon aholi soni dinamikasi ham ko'plab omillar ta'sirida kuchayib bormoqda.


Iqtisodiy rayondagi Jizzax viloyati aholi soni o'sishining yuqoriligi bilan ajralib tursa, aksincha, Sirdaryo viloyati aholisining o'sishi pastligi bilan ko'zga tashlanadi. Mazkur viloyatlarning nafaqat, umumiy, balki shaharlari aholisi ham ko'pgina xususiyatlari bilan, ya'ni o'sish va ko'payish bo'yicha, bir-biridan farq qiladi. Tog' oldi va adirlarda joylashgan G'allaorol, Usmat, Zomin kabi shaharlarida aholining o'sish ko'rsatkichlari yuqori bo'lsa, geografik o'rniga ko'ra, tekislik va cho'l hududlardagi Gagarin, Shirin, Baxt, Sirdaryo shaharlarida aholining o'sish ko'rsatkichlari biroz pastligi bilan ajralib turadi.

O'rganishlar shuni ko'rsatadiki, iqtisodiy rayonda 2000-yil ma'lumoti bo'yicha, shahar aholisi 500,8 ming kishi bo'lgan holda, urbanizatsiya darajasi 31,1 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2005-yilga kelib esa bu ko'rsatkich 523,2 ming kishiga teng bo'ldi yoki o'tgan 5 yil davomida aholining ko'payish sur'ati 4,3 foizni hamda urbanizatsiya darajasi 30,6 foizni, ya'ni 0,5 foizga kamayganligi kuzatildi.

Iqtisodiy rayonda 2010-yilga kelib, shahar aholisi soni 821,5 ming kishiga ko'payib, aholining ko'payish sur'ati 36,4 foizga, urbanizatsiya darajasi esa 44,3 foizga ko'tarildi. 2015-yilga kelib iqtisodiy rayonda jami shahar aholisi 926,2 ming kishiga ko'payib, urbanizatsiya darajasi 45,2 foizga yetdi. 2020-yilda 1009,3 ming kishiga ko'payib, urbanizatsiya darajasi 43,7 foizni tashkil qilib, 2015-yilga nisbatan 1,5 foizga pasaydi. Bizga ma'lum bo'ldiki, barcha yillarda iqtisodiy rayon shahar aholisining ulushi hamda urbanizatsiya darajasi respublika ko'rsatkichlaridan past bo'lib kelgan.

Mirzacho'l iqtisodiy rayonining shaharlarida aholi soni dinamikasida o'zgarishlar bir xil ko'rinishda emas. Masalan, Gagarin va Sirdaryo shaharlarini oladigan bo'lsak, aholining o'sish o'rniga kamayish tendensiyasi kuzatiladi. 2000-yilda Gagarin shahar aholi soni 19,7 ming kishini 2020-yilga kelib esa, 18,5 ming kishini tashkil qilmoqda. Bunga sabab, mazkur hududdagi shahar aholisi tarkibida qozoq millatiga mansub aholining o'z yurtlariga ko'chib ketishi bo'ldi.

Iqtisodiy rayonning ko'plab shaharlari aholi soni 50 mingga bo'lgan kichik shaharlardir. Bu shaharlarning aholisi juda sekinlik bilan ko'paymoqda. Masalan, Jizzax viloyatidagi Do'stlik shahrining aholisi 2000-yilda 16,0 ming kishi bo'lgan bo'lsa 2020-yilda 20,0 ming kishini tashkil qilmoqda, o'rtacha yillik ko'payish 1,05 foizni tashkil etgan. Shirin hamda Baxt shaharlarida ham shunday holatlarni kuzatish mumkin. Baxt shahri aholisi 2000-yilda 11,7 ming kishi bo'lgan bo'lsa, 2020-yilga kelib 13,5 ming kishiga yetib, o'rtacha yillik ko'payish sur'ati 0,65 foiz, ya'ni yiliga o'rtacha 90 kishidan ko'payib borgan. Shirin shahrida ham shunday holat shahar aholisi soni 2000-yilda 13,9 ming kishi bo'lgan bo'lsa, 2020-yilga kelib, 18,0 ming kishini tashkil qilmoqda, yiliga shahar aholisining o'rtacha ko'payish 0,40 foizga to'g'ri kelmoqda.



1-rasm. **Mirzacho'l iqtisodiy rayoni shaharlari aholisi soni va dinamikasi.** Manba: O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

Iqtisodiy rayon shahar aholisining ko'payishi ko'p jihatdan migratsiya jarayoni bilan chambarchas bog'liqligini ko'rsatadi. Shaharlarga aholini migratsiya qilish uchun shahar, barcha shaharlarda tabiiy ko'payish hisobiga aholi soni ortib borganligi kuzatiladi. Mirzacho'l iqtisodiy rayonida sanoat sust rivojlanganligi uchun shaharlarning maydoni kengaymadi va ularning soni ko'paymadi, hozirgi vaqtda aholisining soni ham sekinlik bilan ortib bormoqda. Respublikada 2009-yilda ba'zi qishloq aholi manzilgohlariga shaharcha maqomi berilishi Mirzacho'l iqtisodiy rayonida ham urbanizatsiya darajasining oshishiga olib keldi.

“Shahar aholisi sonining ortib borishida aholining tabiiy ko'payishi, migratsiya va qishloq aholi manzilgohlarining shaharlarga aylantirilishi omillari muhim rol o'ynaydi” [6; 71-b.]. Bu omillarning Mirzacho'l iqtisodiy rayoni shaharlarida 2000-2020 yillar davomida aholi o'sishiga ta'sirini baholaydigan bo'lsak, barcha shaharlarda tabiiy ko'payish hisobiga aholi soni ortib borganligi kuzatiladi. Mirzacho'l iqtisodiy rayonida 2022-yil 1 yanvar ma'lumotiga ko'ra, shahar aholisi 1051,2 ming kishini tashkil etdi, bu ko'rsatkich 2000-yilda 506,1 ming kishi edi. Mazkur yillarda aholisi 545,1 ming kishiga ko'paydi yoki 207,7 foizga o'sdi, o'rtacha yillik ko'payish sur'ati esa 3,20 foizga teng bo'ldi. Shahar aholisining bunday yuqori sur'atda ko'payishiga sabab qilib, 2009-yilda yangi shaharchalarning qo'shilishini keltirish mumkin.

Iqtisodiy rayon shahar aholisi o'sishini yilma-yil tahlil qiladigan bo'lsak, ma'lum darajada tafovutlar mavjudligining guvohi bo'lish mumkin. Masalan, Jizzax viloyatidagi shahar aholisining ulushi turli yillarda o'ziga xos xususiyat kasb etadi. Jumladan, shahar aholisi ulushi 2000-yil 30,2 foizdan 2008-yilda 29,7 foizgacha kamayib borib, 2009-yilda 47,1 foizga ko'tarildi. Biroq 2009-yildan 2020-yilgacha yana urbanizatsiya darajasi pasayish kuzatilib, 2020-yilda 46,8 foizga teng bo'ldi. Viloyat shahar aholisining urbanizatsiya darajasi eng yuqori darajasini 2011-yilda qayd etilgan (48,8 foiz), eng past urbanizatsiya darajasi oxirgi yigirma yillikda, ya'ni 2008-yilda kuzatilgan (29,7 foiz), Jizzax viloyatining shahar aholisi 2000-yilda 294,7 ming kishi bo'lgan bo'lsa 2020-yilga kelib, 648 ming kishini tashkil qilib, 20 yil ichida 353,3 ming kishiga ortdi, o'rtacha yillik ko'payish sur'ati esa 3,80 foizni tashkil qildi.

Sirdaryo viloyatida 2000-2020 yillarda shahar aholisining mutlaq ko'payishiga ko'ra eng yuqori o'sish Yangiyer shahriga o'rtacha yillik 2,05 foiz, eng kam o'sish Sirdaryo shahriga to'g'ri kelmoqda, Shirin, Guliston, Baxt, shaharlarida mazkur yillarda aholisining o'rtacha yillik ko'payish sur'atlari 1,65; 1,10; 0,60 foizni tashkil qilgan.

Iqtisodiy rayonda shahar aholisi ko'payishining yuqori ko'rsatkichlari Baxmal, Jizzax, Paxtakor, Oqoltin, Sayxunobod va Guliston tumanlaridagi shaharchalarda ko'zga tashlanadi. Arnasoy, Zafarobod, Forish, Sirdaryo va Mirzaobod tumanlaridagi shaharchalarda aholi soni dinamikasi sustroq deyish mumkin. Mirzacho'l iqtisodiy rayoni shahar aholisining (2000-2020-yy.) mutlaq ko'payishi turlichaligi avvalgi yillardagi aholining yosh va jinsiy tarkibidagi nomuvofiqliklar, tarixiy demografik vaziyat, nikoh, tug'ilish, o'lim holatlarining farqlari, migratsiya, shuningdek, turli davrlardagi ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatlar bilan chambarchas bog'liq. Shunday qilib, iqtisodiy rayonda shahar aholisi o'sishida ma'lum hududiy tafovutlar mavjud bo'lib, ular shaharlar tabiiy sharoiti va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish imkoniyatlariga bog'liq holda birmuncha farq qiladi. Shu nuqtai-

nazardan iqtisodiy rayon shaharlari aholisi sonining 2000-2020 yillarda o'sish sur'ati bo'yicha quyidagi uch guruhga ajratish mumkin:

1-jadval

**Mirzacho'l iqtisodiy rayoni shahar va shaharchalari aholisining ko'payish sur'ati bo'yicha guruhlarga ajratilishi (2000-2020 yy)**

Aholisining ko'payish sur'ati, foizda	Shahar va shaharchalar nomi	Shahar va shaharchalar soni	Aholi soni, ming kishi
Yuqori (2,00 foizdan ortiq)	Dashtobod, Gulbahor, Usmat, Mulkanlik, Novqa, Gandumtosh, Qorayantoq, Uchtepa, Toqchilik, Pishag'ar, Bo'ston, Fayzobod, Mirzadala, Zomin, Yangiobod, Paxtaobod, Yangiyer	17 21,8	263162 25,9
O'rtacha (1,00-2,00 %)	Jizzax, G'allaorol, Do'stlik, Paxtakor, Guliston, G'oliblar, Oqtosh, Mo'g'ol, Alamli, Tongotar, Baxmal, Qo'yotosh, Marjonbuloq, Lalмикor, Qang'liobod, Chuvulloq, Abdukarim, Uchquloq, Qang'li, Jizzaxlik, Yom, Navro'z, Zarbdor, Sharq yulduzi, Paxtazor, Zafarobod, Yorqin, Pistalikit, Nurafshon, Bog'don, Sovot, Sardoba, Farg'ona, Andijon, Boyovut, Bekat, Sohil, Sho'ro'zak, Paxtakon, Dehqonobod, Beshbuloq, Oqoltin, Ziyokor, Gulbahor	44 56,4	583721 57,6
Past (1,00 % va undan kam)	Gagarin, Baxt, Sirdaryo, Shirin, Sirg'ali, Gulzor, Markaz, Do'stlik, Sayxun, Xo'lkar, Ulug'bek, Xalqako'l, Navro'z, Quyosh, Malik, J.Mamanov, Xovos	17 21,8	166905 16,5
Jami	78 ta	78 100	1013788 100

**Izoh\*** Kasr sur'atida- aholi soni va shahar, shaharchalar soni hamda maxrajida-foizi.

Jadval O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

1. Aholining o'rtacha yillik ko'payish darajasi yuqori bo'lgan shahar aholi manzilgohlari (2,00 foizdan ortiq): Dashtobod, Yangiyer, Pishag'ar, Yangiobod, Zomin va Usmat;

2. Aholining o'rtacha yillik ko'payish sur'ati o'rtacha bo'lgan shahar aholi manzilgohlari (1,00-2,00 %): Jizzax, G'allaorol, Do'stlik, Paxtakor, Guliston, Dehqonobod, Sardoba;

3. Aholining o'rtacha yillik ko'payish holati past bo'lgan (1,00 % va undan kam) shaharlari: Gagarin, Sirdaryo, Baxt, Shirin va boshqalar.

Umuman olganda, iqtisodiy rayon shahar aholisi soni oldingi yillarga nisbatan sezilarli darajada o'sib bormoqda. Shahar hamda shaharchalarda aholi soni o'sishiga tabiiy sharoit hamda sanoatning rivojlanishi ta'sir ko'rsatganligi bois, cho'l hududlari shaharlaridagi aholi soni ko'payish sur'ati nisbatan pastligini ko'rish mumkin. Tabiiy sharoiti, adirli hududlarida aksincha yuqoriligi kuzatilmoqda.

Aholi soni dinamikasi uning tarkiblari tahlilisiz amalga oshmaydi. Shu o'rinda mazkur tadqiqot obyektida shaharlar aholi soni dinamikasidagi o'zgarishlarda ushbu hududlar aholisi tarkibi (yosh, jins, milliy) alohida o'rin tutadi. Binobarin, iqtisodiy rayon aholisi yosh tarkibi uning yoshlardan iborat ekanligini ko'rsatadi. Jumladan, aholi guruhlarining jami aholi sonidagi ulushi tahlil qilinganda, 0-15 yoshlar salmog'i barcha boshqa yoshdagilardan yuqoriligi ma'lum bo'ldi. Demak kelajak o'n-yigirma yil ichida iqtisodiy rayonning aholi soni tug'ilishning yuqoriligi evaziga ko'payishda davom etadi. 2021-yil ma'lumotlari asosida Mirzacho'l iqtisodiy rayon jami aholisining jinsiy tarkibi tahlil qilinganda 0-44 yoshgacha bo'lgan yosh guruhlarida erkaklar ulushining kattaligi ma'lum bo'ldi. 45 yosh va undan keyingi yosh guruhlarida esa ayollar salmog'i oshib boradi. Keksa yoshdagi aholi tarkibida ayniqsa, 80 yoshdan yuqori yoshdagilarda ayollar salmog'i keskin oshib boradi.

Mirzacho'l iqtisodiy rayoni shaharlarida aholi tarkibida 28 yoshgacha bo'lgan yosh guruhlarida erkaklar salmog'i yuqori bo'lgan bo'lsa, keyingi yosh guruhlarida ayollarning salmog'i oshib borishi kuzatilmoqda, bunga sabab shaharlarda erkaklarning migratsiyadagi faolligi bilan bog'liqdir. Bundan tashqari, aholining jinsiy tarkibi tahlil qilinganda, 2020-yilda shahar aholisining jinsiy tarkibida erkaklar salmog'i Dashtobod, Baxt, Sirdaryo kabi shaharlarda yuqoridir. So'nggi yillarda, Jizzax shahri aholisining jinsiy tarkibida tenglik kuzatilmoqda. Jumladan, Gagarin, Shirin, Do'stlik shaharlarida ayollar ulushi erkaklarga nisbatan balanddir. Iqtisodiy rayonda eng ko'p ayollar ulushiga ega bo'lgan shahar Gagarin shahridir, bu shaharda ayollar ulushi 53 foizni tashkil qilmoqda. Bunga sabab qilib, aholi migratsiyasini, ishsizlik, ajrashishlar, aholining keksa yosh tarkibida ayollarning ko'pligi, erkaklarning yo'l transport halokatlarida halok bo'lishi, ichkilik va kashandalik kabi salbiy omillar tufayli o'limi ko'payishi kabilarni keltirish o'rinli. Mirzacho'l iqtisodiy rayoni shaharlari aholisining demografik rivojlanishida va tarkibida uning milliy tarkibi alohida o'ringa egadir. Iqtisodiy rayon shaharlaridagi aholining milliy tarkibiga e'tibor beradigan bo'lsak unchalik murakkab emas.

Iqtisodiy rayon shaharlarida o'zbeklarning ulushi 86 foiz atrofida bo'lib, Yevropa millatiga mansub aholi asosan shaharlarda yashaydi. Hozirgi vaqtda ruslarning jami iqtisodiy rayon shahar aholisidagi ulushi bir foizdan ham kamroqdir. Bundan tashqari, ruslar Guliston, Sirdaryo, Shirin kabi shaharlarda ham yashashadi.

Mirzacho'l iqtisodiy rayoni aholisining milliy tarkibida eng ko'p rus millatiga ega bo'lgan shahar bu, Shirin shahri hisoblanadi. Shirin shahrida ruslar 2011-yilda 9,2 foizni, 2020-yilga kelib esa 7,5 foizni tashkil qilmoqda, Shaharda 2020-yilda o'zbeklar hissasi 78,6 foizdan bo'lmoqda.

**Xulosa va takliflar.** Shunday qilib, Mirzacho'l iqtisodiy rayoni shaharlar aholisi soni va tarkibida ma'lum hududiy tafovutlar mavjud bo'lib, ular shaharlar tabiiy sharoiti va ijtimoiy – iqtisodiy rivojlanish imkoniyatlariga bog'liq holda o'zgarib bormoqda. Jumladan, adirli hududlar shaharchalarida aholining tug'ilish darajasi baland bo'lsa, cho'l hududlaridagi shahar va shaharchalarda aholining tug'ilish darajasi past, o'lim ko'rsatkichi esa yuqoridir, bunga asosiy sabab ushbu hududlar tabiiy sharoitining noqulayligidir.

**ADABIYOTLAR**

1. Мусаев Б.М. “Мирзачўл иқтисодий райони шаҳарлари ҳудудий ташкил этилишида географик омилларнинг роли” ЎзМУ хабарлари. Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий Университети илмий журнали 2022 йил. – 275-277 бетлар.
2. Мусаев Б.М. “Ўзбекистон республикасида шаҳарлар тўри ва таркибининг ўзгариши” ЎзМУ хабарлари. Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий Университети илмий журнали 2022. – 227-230 бетлар.
3. Тожиева З.Н., Мусаев Б.М. «Мирзачўл иқтисодий райони ҳудудий-урбанистик таркибидаги ўзгаришлар» «Ўзбекистон география жамияти ахбороти» 2022 йил. 62-69 бетлар.
4. Тожиева З.Н., Ўзбекистон Республикасида демографик жараёнлар ва уларнинг ҳудудий хусусиятлари. География фанлари доктори (Doktor of Science) илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертация. -Т.: 2017 й. 267-б.
5. Тожиева З.Н. Жиззах вилояти аҳолисининг ўсиши ва жойланишидаги ижтимоий-иқтисодий муаммолар. География фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертация. -Т.: 1998 й.-34-б.

6. Хушвақтов Ҳ.О. Мирзачўлни ўзлаштириш учун аҳоли кўчирилиши ва уларнинг ижтимоий-иқтисодий аҳволи (1946-1970 йй.) Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (Doctor of Philosophy) илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертация. -Т.:2019 й.
7. Эгамбердиева М.М. Бозор иқтисодиёти шароитида шаҳарлар ривожланишининг минтақавий муаммолари. География фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертация. -Т.: 2008 й.71-б
8. Эрбўтаева Ў.С., Баратов И., Алибеков У., Бектурдиев Ш. Сирдарё вилояти тарихи. Гулистон, 2010 й.43 б.
9. Эсанов Н.А. Ўзбекистонда шаҳар аҳоли пунктларини барпо этилиши ва ривожланиши билан алоқадор масалалар. “Ўзбекистонда география фанининг долзарб масалалари” Республика илмий-амалий конференцияси материаллари. -Термиз 2020 й. 11 ноябрь.185-б
10. Эсанов Ў.С, Баратов И., Алибеков У., Бектурдиев Ш., Сирдарё вилояти тарихи. Гулистон, 2010 й. 43 б.